ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 11

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.11.2024
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, *filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)*
Shoxista Maxmaraimova, *filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)*
O'ral Xoliyorov, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Olmos Ulviy Binnatova, *f.f.d., professor (Ozarbayjon)*
Karl Rayxl, *f.f.d., professor (Germaniya)*
Vali Savash yelok, *f.f.d., professor (Turkiya)*
Dorota Silviya, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)*
Muslihiddin Muhiddinov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Ibodulla Mirzayev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Abdi Mamatov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Suyun Karimov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Muhammadxon Hakimov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Nafas Shodmonov *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Dilmurod Quronov, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Murodqosim Abdiyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Baxtiyor Mengliyev, *f.f.d., professor (O'zbekiston)*
Normat Yo'ldoshev, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Abdulla Xudoyqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Bobonazar Murtazayev, *f.f.n., dotsent (O'zbekiston)*
Asqar Eshmo'minov, *f.f.d., dotsent (O'zbekiston)*
Obidjon Shofiyev, *f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)*
Zafar Umurqulov, *f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O'zbekiston)*
Nurali Amonturdiyev, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Hakim Ahmedov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Ahad Shukurov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Eshnazar Jabborov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Abdumurod Arslonov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sirojiddin Turdimurodov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Umida Raximova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Gulchehra Begmatova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Nargis Qurbonazarova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Muyassar Xolova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Shoira Omonturdiyeva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Sherzod Turdiqulov, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Zaynura Qodirova, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Humayun Nadim Muhammad, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*
Dilrabo Ergasheva, *f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)*

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.11.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100
Цена договорная
Заказ: 155
Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, *доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)*
Шохиста Махмараимова, *доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)*
Урал Холияров, *ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Олмос Улвий Биннатова, *д.ф.н., профессор (Азербайджан)*
Карл Райхл, *д.ф.н., профессор (Германия)*
Вали Саваш Елок, *д.ф.н., профессор (Турция)*
Дорота Сильвия, *PhD, доцент (Польша)*
Муслихиддин Мухиддинов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Ибодулла Мирзаев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Абди Маматов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Суюн Каримов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мухаммадхон Хакимов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нафас Шодмонов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Дилмурод Куронов, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Мурадкасим Абдиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Бахтиёр Менглиев, *д.ф.н., профессор (Узбекистан)*
Нормат Юлдашев, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Абдулла Худайкулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Бобоназар Муртазаев, *ф.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Аскар Эшмуминов, *д.ф.н., доцент (Узбекистан)*
Обиджон Шофиев, *д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)*
Зафар Умуркулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Нурали Амонтурдиев, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хаким Ахмедов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Ахад Шукуров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Эшназар Джаббаров, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Абдумурод Арслонов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Сирожиддин Турдимуродов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Умида Рахимова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Гульчехра Бегматова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Наргис Курбаназарова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Муяссар Холова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шаира Амонтурдиева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Шерзад Турдикулов, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Зайнура Кадирова, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Хумаюн Надим Мухаммад, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*
Дильрабо Эргашева, *д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)*

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President`s Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.11.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94
Offset printing. Offset paper
Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155

Printed at the
«Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)*
Shohista Makhmaraimova, *doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)*
Ural Kholiyorov, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Olmos Ulviy Binnatova, *doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)*
Karl Rayxl, *doct.of philol. sciences, professor (Germany)*
Vali Salvash Elok, *doct. of philol. sciences, professor (Turkey)*
Dorota Silvia, *PhD, associate professor (Poland)*
Muslihiddin Mukhiddinov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Ibodulla Mirzaev, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Abdi Mmatov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Suyun Karimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muhammadkhon Khakimov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Nafas Shodmonov, *doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Dilmurod Kuronov, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Muradkasim Abdiyev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Bakhtiyor Mengliev, *doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)*
Normat Yuldashev, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Abdulla Khudaykulov, *PhD (Uzbekistan)*
Bobonazar Murtazaev, *cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Askar Eshmuminov, *doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)*
Obidjon Shofiev, *PhD, associate professor (Uzbekistan)*
Zafar Umurkulov, *PhD (Uzbekistan)*
Nurali Amonturdiev, *PhD (Uzbekistan)*
Hakim Akhmedov, *PhD (Uzbekistan)*
Ahad Shukurov, *PhD (Uzbekistan)*
Eshnazar Jabbarov, *PhD (Uzbekistan)*
Abdumurod Arslonov, *PhD (Uzbekistan)*
Sirojiddin Turdimurodov, *PhD (Uzbekistan)*
Umida Rakhimova, *PhD (Uzbekistan)*
Gulchekhra Begmatova, *PhD (Uzbekistan)*
Nargis Kurbanazarova, *PhD (Uzbekistan)*
Muyassar Kholova, *PhD (Uzbekistan)*
Shoira Omonturdiyeva, *PhD (Uzbekistan)*
Sherzod Turdikulov, *PhD (Uzbekistan)*
Zaynura Kadirova, *PhD (Uzbekistan)*
Humayun Nadim Muhammad, *PhD (Uzbekistan)*
Dilrabo Ergashova, *PhD (Uzbekistan)*

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

AMANOV ABDIJABBOR SATTAROVICH
Murakkab sintaktik tuzilmalar haqida 7

УСМОНОВА ШАҲОДАТ
Газета дискурсида таржима масаласи: Трансформацион таҳлил 11

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod uslubiy bayonida antropomorf metaforalarning voqelanishi 16

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Tilning mohiyati va vazifalarini yuzaga keltirishda uslubiyatning o‘rni 19

ИБАТОВА АМИРА ШАВКАТОВНА
Лексика – тилдаги барча сўзларнинг йиғиндиси 23

NABIYEVA RUSHANA JAMOL QIZI
O‘zbek tilidagi yangi oziq-ovqat o‘zlashmalarining leksikografik tavsifi masalalari:
Muammo va vazifalar 26

NABIYEVA PARVINA AKBARJANOVNA
Jahon tilshunosligida tezaurus tushunchasi va uning tadqiqi 30

MUXAMMADIYEV NODIR RUSTAMZODA
Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalariga fors-tojik
va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tahlili 35

ASATULLAYEVA DILNAVOZ JONDULLAYEVNA
Morfonologik hodisalar va ularning Buxoro viloyati o‘g‘uz shevalarida uchrashi 39

ABDULLAJONOVA MADINA TO‘LANBOY QIZI
Yozma nutq shakllanishi va rivojlanishining psixolingvistik tahlili 42

NAZARMATOVA KUMUSH FARHODOVNA
O‘zbek tilida komplimentlarning lingvopragmatik tahlili
(O‘. Hoshimovning «Ikki eshik orasi» asari misolida) 46

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
«Devonu lug‘otit-turk» asarida qo‘llangan taom nomlarining qiyosiy tadqiqi 50

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Lexical composition of scientific prose 53

НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА РАДЖАПОВА
Гендерная лексика в туркменском языке 56

МУНДАРИЖА

ТОЙЧИЕВА НАСИБАХОН СУРАНБАЕВНА
Сходства и различия в процессе формирования терминологии
бытовой лексики в узбекском и русском языках 58

BOBOMUROTOV FARRUKH,
DAVLYATOVA ELVIRA MURATOVNA
The problems of reconstruction aphoristic prose of e. M. Remarque in uzbek translations..... 64

НАЗАРОВА МАНЗУРА НАСРУЛЛАЕВНА,
БАХТИЁРОВ ШОХЖАХОН
Роль речи в развитии мышления..... 68

QAHRAMONOV ISLOM BOTIR O‘G‘LI
DAVLYATOVA ELVIRA MURADOVNA
The problems of thematic classification of
military terms in english and uzbek languages..... 71

ADABIYOTSHUNOSLIK

АБДУЛЛАЕВ МУҲАММАД ҲАМЗАЕВИЧ
Убайдий ва шайх Саъдий..... 75

МУСТАФОҚУЛОВ РЎЗИҚУЛ БОЙНАЗАРОВИЧ
Мангу барҳаёт сиймо..... 78

ТОИРОВА ДИЛФУЗА ФАЙЗУЛЛАЕВНА
Эстетика запада и востока в творчестве Гюстава Флобера..... 83

TAJIBAYEVA DILFUZA ERKINOVNA
Poetik timsol yaratishda oq rang tasviri 86

МУСИНОВА ЗЕБО ТУРАБОВНА
Разоблачение роковых последствий в историческом
Романе эжена сю «жан кавалье» 88

MANSUROVA UMIDAXON IBROHIMOVNA
Badiiy asarda biografik tasvirning o‘rni 92

BOYMURATOVA NARGIZA BOZORBOYEVNA
Tasavvufiy timsollar va she’riyat 96

NAZAROVA NAMUNA ABDUMAJITOVNA
Sirojiddin Sayyid ijodidan bir g‘azal tahlili..... 98

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2024; 11
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

YOZMA NUTQ SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

Abdullajonova Madina To'lanboy qizi,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Yozma nutq faoliyatining psixolingvistik, psixofiziologik asoslari, yozuv o'zlashtirish bosqichlari, yozma nutq faoliyati shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari doirasida xorijiy olimlar tomonidan bir qator fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, A.R.Luriyaning nutqiy faoliyatning psixolingvistik va neyrolingvistik jihatlari borasida, L.S.Vigotskiyning psixolingvistika va kognitiv rivojlanish, nutqning rivojlanishi va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlik doirasida olib borgan tadqiqotlari, J.Piagetning nutq faoliyati va kognitiv rivojlanish yuzasidan bildirgan ilmiy xulosalari, J.Brunerning til va yozuv o'zlashtirish jarayonlarida bola intellektual rivojlanishining o'rni, D.McNeillning yozma nutqni rivojlantirishda noverbal komponentlarning (masalan, qo'l harakatlari)ning ahamiyati, M.Harris Bondning tadqiqotlari yozuv o'zlashtirish jarayonining madaniy va lingvistik jihatlari, S.Dehaenening yozuvning neyrologik jihatlari va o'qish jarayonida miyaning qanday ishlashi haqida ilmiy yondashuvlari hamda yana boshqa ko'plab tadqiqotlar natijasida ushbu masala yuzasidan muhim ilmiy nazariyalar yuzaga keldi.

Bu borada bizda tilshunoslik, pedagogika, logopediya sohalarida ham ahamiyatga molik izlanishlar olib borilgan, shunga qaramay, bu izlanishlar ko'proq pedagogika va logopediya sohasi bilan cheklanib qolayotganligini ta'kidlash zarur. Yozma nutq faoliyatining psixolingvistik, psixofiziologik asoslari, yozma nutq faoliyatining buzilishi, disgrafiya, disleksiya, dispraksiya, diskalkuliya singari ta'limiy nuqsonlar hamda ularning neyrolingvistik asoslarini tadqiq etish bugungi kunda nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqolada maktab yoshigacha bo'lgan bolalarda yozish qobiliyatining shakllanishi va rivojlanishi, yozish malakasini egallash va yozma nutqning faoliyat darajasiga ko'tarilishiga qadar bo'lgan murakkab jarayon va bosqichlar, ushbu bosqichning o'ziga xos xususiyatlari hamda bu bosqichda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar xususida so'z boradi. Maktab yoshigacha va boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozish jarayonini kuzatish orqali chiqarilgan ayrim shaxsiy xulosalar taqdim etiladi.

Yozma nutq faoliyati nutqiy faoliyatning asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, og'zaki nutq faoliyatidan ayrim xususiyatlari bilan farqlanadi. Agar bola og'zaki nutqni o'zi, kattalar bilan o'zaro munosabat jarayonida, til tizimini asta-sekin o'z ichiga olgan holda o'zlashtirsa, yozma nutqni maxsus o'rgatish kerak. Bunday holda, yozishni o'zlashtirishning muhim sharti – bolaning metallingvistik darajaga o'tishi, gapirganda aynan nima qilayotganini anglash darajasi paydo bo'ladi. Yozma nutq boshidanoq ongli ixtiyoriy harakatga aylanadi[1].

Yozma nutq faoliyatining shakllanishi quyidagi 4 bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Yozish qobiliyati shakllanishi va rivojlanishining dastlabki bosqichi.

Yozish qobiliyati shakllanishi va rivojlanishining dastlabki bosqichi bola tug'ilganidan to ilk savod chiqarishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqichning erta davri xususida so'z ketganda yozish haqida emas, balki «chizish» haqida mulohaza yuritish o'rinli bo'ladi. Ya'ni bolalar dastavval yozmaydi, balki turli shakllarni chizadi. Umuman olganda, yozuv o'zlashtirishgacha bo'lgan bosqich bolada voqelikdagi predmetlarni ramz sifatida qabul qilish (masalan, to'rtburchak shakldagi predmet o'yin jarayonida mashina, uy va hokazo vazifalarni bajarishi mumkin), shuningdek, dastlabki vizual belgilarning paydo bo'lishidan boshlanadi. Ya'ni, bolada turli harakatli o'yinlar va chizish orqali harflarni belgi sifatida qabul qilishga tayyorgarlik jarayoni kechadi. Bolalar tomonidan chizilgan ilk rasmlar haqiqiy ma'noda tasvirdan ko'ra imo-ishoraga yaqin turadi.

Yozish qobiliyati shakllanishi va rivojlanishining dastlabki bosqichi quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

1. Umumiy va nozik motorikaning rivojlanishi. Umumiy va nozik motorikaning yetarli darajada rivojlanishi bolaning yozma nutq faoliyatini egallashida muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nozik motorikaning

[1] Ощепкова Е.С. Письменная речь в отечественной психолингвистике / Вопросы психолингвистики 4 (50) 2021. – С. 119.

rivojlanishi yozuv asboblarini to‘g‘ri ushlash, harflar va raqamlarni belgilangan shaklda, aniq yozish, qo‘l-ko‘z harakatini muvofiqlashtirish, yozish jarayonini vaqt nuqtayi nazaridan samarali tashkil etishda muhim o‘rin tutadi. Nozik motorika bolaning chaqaloqlik davrida shakllana boshlaydi va erta bolalik davrida (6-7-yoshda) rivojlanadi. Umumiy va nozik motorikaning normal rivojlanishi, birinchi navbatda, miyaning frontal, parietal lobida joylashgan bir nechta sohalar faoliyatiga bog‘liq. Nozik motorikaning yetarli darajada rivojlanmasligi disgrafiya, dispraksiya, og‘zaki nutqning buzilishi singari bir qancha ta’limiy nuqsonlarni keltirib chiqarishi mumkin.

2. Qog‘oz-qalam bilan ishlashga qiziqishning paydo bo‘lishi. Bu bola tomonidan dastavval deyarli o‘yin tarzida qabul qilinadi. Bola ma’lum yoshga yetganda (ko‘pincha, 2-3 yoshdan boshlab, biroq bu jarayon bolalarda bir xil kechmasligini ta’kidlash zarur) qog‘oz-qalam bilan ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Taxminan 2-3 yoshda ularning asosiy e’tibori ushbu vositalardan foydalanishning hissiy tajribasiga qaratiladi. 3-4 yoshda nozik vosita ko‘nikmalari rivojlanishi bilan bolalar ko‘proq belgilar va shakllarni «yaratadilar», shuningdek harflar yoki raqamlarni yozishga taqlid qilishni boshlaydilar. 4-6 yoshda ular ayrim so‘zlarni ko‘chirib yozishlari, ba’zan yoddan yozishlari mumkin.

Bolalarda qog‘oz-qalam bilan ishlashga qiziqishning paydo bo‘lishi kognitiv rivojlanish (olam haqidagi tushunchalarini vizual ifodalash), ijtimoiy o‘zaro ta’sir (yozayotgan tengdoshlari yoki kattalarga taqlid), ijodkorlik va o‘zini namoyon qilish singari bir qancha psixolingvistik va ijtimoiy asoslarga ega.

Umuman olganda, bolalarning qog‘oz va qalam bilan ishlashga bo‘lgan qiziqishi kognitiv, lingvistik va ijtimoiy omillarning kombinatsiyasini aks ettiradi. Bu qiziqish bolalar rivojlanishining asosiy qismi bo‘lib, savodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishni qo‘llab-quvvatlaydi va ijodkorlikni rivojlantiradi.

3. Bolaning ilk yozuvlari rasm va chizma ko‘rinishida bo‘lishi va ma’lum so‘z yoki jumla ma’nosi bilan shartli bog‘langanligi.

Bolalarning dastlabki yozuvlari ko‘pincha rasm va chizmalar shaklida bo‘lib, ular vizual ifoda va yozma til o‘rtasida ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu dastlabki ifodalar odatda shartli ravishda muayyan so‘z yoki jumlalarning ma’nolari bilan bog‘lanadi. Rivojlanishning dastlabki bosqichida bolalarning rasmlari ularning yozuvlari bo‘lib, bolalardan yozish so‘ralganda, ular chizib ko‘rsatadilar. Keyin bolalar o‘zlarining chizmalaridan tashqari «yozuv»ni ifodalovchi alohida belgilar qo‘yishni boshlaydilar[1].

Bolalar taxminan 2-3-yoshida tasodifiy belgilar va chizmalarni chiza boshlaydi, bu belgilar hali aniq ma’noga ega bo‘lmasligi mumkin, ammo motor ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun amaliyot bo‘lib xizmat qiladi. Bolalar rivojlanishi bilan ular obyektlar sifatida aniqlashlari mumkin bo‘lgan doiralar yoki chiziqlar kabi tanish shakllarni yaratishni boshlaydilar. Ushbu chizmalar ko‘pincha aniq so‘zlar (quyosh, odam va hokazo) yoki g‘oyalar (quyoshning chiqqanligi, odamning yo‘lda yurib ketayotganligi) bilan bog‘lanadi. Taxminan 4-5 yoshlarida bolalar hikoya yoki tushunchani ifodalash uchun rasm chizishlari mumkin. Masalan, «uy»ni ko‘rsatish uchun uyni chizish yoki oddiy hikoyani aytib beradigan sahna yaratish. Bu ramzlar va tasvirni tushunishni ko‘rsatadi.

Psixolingvistik jihatdan tahlil qilinsa, belgilardan foydalanish qobiliyati kognitiv rivojlanishning asosiy jihati hisoblanadi. Bolalar aniq tasvirlarni tushunchalar bilan bog‘lashni o‘rganadilar, yozma belgilar (harflar va so‘zlar) ham g‘oyalarni ifodalashi mumkinligini tushunish uchun asos yaratadilar. J.Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi bolalarning fikrlash bosqichlaridan o‘tishini taklif qiladi. Aniq fikrlashdan (chizmalar bilan ifodalangan) mavhum fikrlashga (harflar va so‘zlar bilan ifodalangan) o‘tish o‘sishning asosiy jihati hisoblanadi. Demak, bolalarning rasm va chizmalar ko‘rinishidagi dastlabki yozuvlari yozuv malakasini egallashning muhim bosqichidir. Bu jarayon ularning kognitiv va lingvistik o‘sishini aks ettiradi, chunki ular ma’noni yetkazish uchun ramzlardan foydalanishni o‘rganadilar.

4. Qog‘ozda yo‘nalish belgilashning noaniqligi (varaqning istalgan nuqtasidan chizmaning boshlanishi, chiziqlar, turli shakllarning nafaqat o‘ngdan chapga tomon, balki chapdan o‘ngga, yuqoridan pastga va aksincha chizilishi). Yozma nutq shakllanishining dastlabki bosqichida bolalarda nozik motorika rivojlanish bosqichida bo‘ladi, bu esa, tabiiyki, ularning qog‘ozdagi belgilarning yo‘nalishi va joylashishini nazorat qilish qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda, ikki o‘lchovli yuzada (qog‘oz kabi) fazo orientatsiyasi va yo‘nalishini tushunish asta-sekinlik bilan rivojlanadigan mahoratdir. Bolalar yozish va chizishda keng tarqalgan yuqoridan pastga va chapdan o‘ngga tartibini hali aniq his qilmasligi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, qog‘ozda yo‘nalish aniqlashdagi noaniqlik normal rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bolalar ko‘proq tajriba orttirishlari, nozik motorika, kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishlari bilan asta-sekin me’yorlarga mos keladigan izchil yozish mahoratini egallaydilar.

5. Chizma va tasvirlar hajmining erkinligi (ba’zan juda katta, ba’zan nihoyatda kichik shaklda yozish), yozish jarayonida egri chiziq, o‘tkir burchakli chiziqlar va prujina shaklidagi tasvirlardan foydalanish.

[1] Sonia Q.Cabell, Laura S.Tortorelli, Hope K.Gerde. How do i write...? Scaffolding preschoolers’ early writing skills. The Reading Teacher, Vol. 66 Issue 8, 2013. – P. 650.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bu bosqichda bolalarning nozik motorikasi rivojlanish jarayonida bo'lganligi sababli, chizmalar hajmidagi beqarorlik kuzatiladi va ko'pincha kattaroq shakllar va egri chiziqlardan foydalaniladi. Sababi kichik chizmalar ko'proq nazorat va aniqlikni talab qiladi. Qolaversa, bolada o'lchov va mutanosiblik haqidagi tushunchalar rivojlanish bosqichida bo'ladi. Umuman olganda, bu bosqichda chizmalar va tasvirlar o'lchamidagi erkinlik bolalar kognitiv rivojlanishining normal qismidir.

7. Bolaning, odatda, tez-tez ko'radigan (turli mahsulotlarning yorliqlari, dori-darmon qutilaridagi yozuvlar va hokazo) so'zlarini katta bosma harflar bilan ko'chirib yozishga urinishi. Bu yozish qobiliyati shakllanishi va rivojlanishi bosqichining nisbatan kechroq davrida kuzatiladi. Bu bosqichda harflar va so'zlarni vizual belgilar sifatida tanib olish qobiliyati rivojlanadi. Shunga qaramay, bolalarda hali harf-tovush munosabatini tushunish yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi. Ular yozishga taqlid qilishadi va bu jarayonda o'ziga vizual jihatdan yaxshi tanish bo'lgan so'zlardan foydalanishadi. Nusxa ko'chirish jarayoni xotira va e'tiborni jalb qiladi. Bolalar tez-tez ko'rgan so'zlarini eslab qolishadi, ayrim hollarda (ota, ona singari so'zlar, bolaning o'z ismi va hokazo) ularni ma'nolari bilan bog'laydilar.

8. Alifboda mavjud bo'lmagan harflarni «kashf qilish» va mavjud tovushlarni ifodalovchi grafik birlik sifatida qabul qilish, ko'chirib yozishga urinish jarayonida ayrim harflarni teskari holatda yozish. Bola tomonidan bu bosqichda alifboda mavjud bo'lmagan harflarni «kashf qilish» (bu odatda boladan biror bir harfni yozib berish so'ralgan vaqtda kuzatiladi) ushbu bosqichda normal holat hisoblanadi. Shuningdek, bolaning nozik motorikasi hamda vizual idrok etish qobiliyati rivojlanish bosqichida bo'lganligi sababli, harflarni teskari yoki boshqacha shaklda yozish odatiy hol sanaladi.

Ko'rinadiki, dastlabki bosqich keyingi bosqichlarning muvaffaqiyatli kechishi uchun asos vazifasini bajaradi. Ilmiy izlanishlar bolada yozuv ko'nikmasini shakllantirish tayyorgarliksiz qiyin kechishini isbotlagan. Ya'ni ma'lum shakllarni o'zlashtirish harflarni muvaffaqiyatli o'rganish uchun asos bo'ladi. Murakkab belgilar tizimini o'zlashtirishni faqat mexanik yo'l bilan, shunchaki talaffuz qilish yordamida amalga oshirib bo'lmaydi. Savodxonlikka olib keladigan asosiy til qobiliyatlari fonologik xabardorlik, harflarning bosma shakllaridan xabardorlik va lug'at boyligini o'z ichiga oladi[1].

2.Yozma nutq shakllanishining dastlabki bosqichi.

Mazkur bosqichda so'zlardagi tovushlarni tanib olish, tovushlar va harflar o'rtasidagi munosabatni tushunish (fonemik xabardorlik) rivojlanadi. Harflarning alohida elementlari va ularning yaxlit ko'rinishi o'zlashtiriladi, tovush-harf aloqasi mustahkamlanadi. Harflar yordamida so'zlar, so'zlar yordamida sodda gaplar yozish ko'nikmasi shakllanadi. Har bir harfning yozilishi dastlab bir qator alohida harakatlar orqali yuzaga chiqadi. O'quvchi mazkur bosqichda asosiy e'tiborini harfning har bir elementini to'g'ri yozishga qaratadi. E.V.Guryanov o'z tadqiqotlarida ko'rsatganidek, faqat ularning kombinatsiyasi – individual ongli harakatlar oxir-oqibat butun xat yozishga olib keladi. Bolaning diqqatini nutqning ma'nosidan uning tovush tarkibiga o'tkazish bu davrning asosiy vazifasi bo'lib, savod o'rgatishning dastlabki davrida biroz ko'proq vaqt talab qilishi tabiiy. Bola harfning grafik tasvirini yodda saqlab qolishi, so'zni yozishda tovushlar va harflar tartibini saqlashi lozim. Ammo bu jarayon hali yozma nutq darajasiga ko'tarilmagan bo'lib, uni yozish texnikasini o'zlashtirish sifatida baholash zarur[2].

Umuman olganda, yozma nutq shakllanishining dastlabki bosqichi quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

• qog'oz-qalam bilan ishlash jarayonining aniq maqsadga yo'naltirilganligi;

• egri, to'lqinsimon chiziqlarning nisbatan to'g'ri, burchakli va aylana shakllar bilan almashinishi;

• alohida harflarning shakliga e'tiborning kuchayishi (butun harfni qismlarga ajratgan holda qabul qilish, masalan, a harfi aylana va tayoqchadan iborat va hokazo);

• bosh va kichik harflarni, shuningdek, harflarning bosma va yozma shakllarini o'zlashtirish, biroq yozishda chalkashliklarning kuzatilishi;

• o'xshash elementli harflarni almashtirish (a-o; o-o'; g-q va hokazo), oyna yozuvi (ayrim harflarni, shu bilan bir qatorda raqamlarni teskari yozish);

• murakkab elementli harflarni yozishda qiyinchiliklarning kuzatilishi;

• ayrim harflarning elementlarini tushirib qoldirish yoki qo'shimcha element bilan yozish;

• so'zlar tarkibidagi harflarni (ko'pincha unlilarni) tashlab ketish, tartibini buzish (ko'chirib yozishda yoki diktant yozish jarayonida);

• harflar o'lchamidagi nomutanosiblik;

• harflar va so'zlar orasidagi masofaning nomuvofiqligi;

[1] Ann Casey, Christina Sheran. Early Literacy Skills Development. NASP Communiqué, Vol. 32, Issue 6, 2004. – P. 2.

[2] Безруких М.М., Крещенко О.Ю. Психофизиологические механизмы формирования навыка письма у детей 6-7 и 9-10 лет. // Новые исследования, 2013. – № 4 (37) – С. 17.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan holatlar yozma nutq shakllanishining dastlabki bosqichida normal holat hisoblanadi va hech qanday yozma nutq patologiyasi bilan bog‘lanmaydi. Shunga qaramay, mazkur bosqichda o‘quvchilarning yozish texnikasini o‘zlashtirish jarayonini kuzatish va tahlil qilish, rivojlanish darajasini aniqlash keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yozma nutq muammolarining oldini olishda muhim o‘rin tutadi.

3. Yozma nutqning rivojlanish bosqichi.

Ushbu bosqichda grafemalarning xotirada aniq tasviri shakllanishi nihoyasiga yetadi, harflar birikmasi orqali bo‘g‘in, bo‘g‘inlar yordamida so‘zlar hosil qilish malakasi egallanadi. Qobiliyatning rivojlanishi bilan yozishning psixologik tuzilishi o‘zgaradi. Bola harflarning butun kombinatsiyasini, keyin esa butun so‘zlarni oson yozishni o‘rganadi. Tovushlarni tanlash, kerakli grafik belgilarni topish va harflarni yozish – bularning barchasi avtomatlashtiriladi, umumiy bir butunga bo‘ysunadigan alohida operatsiyalarga aylanadi; bola bu operatsiyalarni avtomatik ravishda bajarishni boshlaydi. Umuman olganda, yozish ko‘nikmalari erta o‘smirlik davrida vizual yo‘nalishdan avtomatlashtirilgan yozishga o‘tadi[1]. Yaxshi avtomatlashtirilgan so‘zlarni yozishda yozuv silliq kinetik stereotipga aylanadi[2]. Elementar yozuv harakatlari birlashtiriladi. Shu bilan bir qatorda, bu bosqichda ayrim o‘ziga xos qiyinchiliklar kuzatiladi:

• chiziq bo‘ylab yozishdagi qiyinchiliklar (yozuvning chiziqdan yuqoriga chiqib ketishi, yoki aksincha, pastga tomon og‘ishi);

• ayrim hollarda yaxlit so‘zni bir nechta qismlarga ajratib yozish va aksincha, bir nechta alohida so‘zlarni bitta so‘z sifatida yozish.

• nisbatan murakkabroq so‘zlar tarkibidagi tovushlarni tahlil qilish va ularni grafemalarga aylantirishda qiyinchilik kuzatilishi;

• alohida so‘zlarni yozishda ovoz chiqarib talaffuz qilish orqali tovush tarkibini aniqlashning ustunligi.

• yozish jarayonida ba’zan orfografik qoidalarga amal qilmaslik, so‘zlarni talaffuzga asosan yozish;

• bo‘g‘in ko‘chirish qoidalariga amal qilmaslik;

• punktuatsiya qoidalaridan chetga chiqish va hokazo.

Ko‘rinadiki, yozma nutqning rivojlanish bosqichi bir qator o‘ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi hamda mazkur bosqichning muvaffaqiyatli kechishi keyingi bosqichni egallashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Yozma nutqning faoliyat darajasiga ko‘tarilish bosqichi.

Yozma nutqning faoliyat darajasiga ko‘tarilishi murakkab jarayon bo‘lib, uzoq davrni o‘z ichiga oladi. Mazkur davrda, tom ma’noda yozuv fikrni ifodalash vositasiga aylanadi. Bola bu davrda erkin jumla tuza oladi, kognitiv rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda ijodiy matn yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi, yozish faoliyat darajasiga ko‘tariladi. Yozuv o‘zlashtirishning mazkur bosqichi quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

– so‘zlarning tovush tarkibini aniqlashga yordam beruvchi tashqi talaffuzning pichirlashga yoki ichki nutq shakliga o‘tishi;

– so‘z chegaralarini aniqlash qobiliyatining rivojlanganligi;

– nozik motorika qobiliyatining yetarli darajada rivojlanganligi;

– tinish belgilarini bajaradigan vazifalarini tushungan holda qo‘llash;

– sodda gaplardan iborat kichik matnlar tuzish ko‘nikmasining shakllanishi va rivojlanishi;

– murakkab gaplar tuzish qobiliyatining shakllanishi;

– ijodiy matn tuzish qobiliyatining rivojlanishi va hokazo.

Umuman olganda, bu bosqichning asosiy xususiyati yozma nutqdan fikr ifodalash vositasi sifatida erkin foydalana olish malakasini egallashdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yozma nutq faoliyati shakllanishi va rivojlanish bosqichlarining normal kechishi bolaning qobiliyati, o‘rganishga nisbatan qiziqishi, aqliy rivojlanganlik darajasi singari birlamchi omillar bilan bir qatorda, oilaviy muhit, ta’lim berish jarayonining to‘g‘ri tashkil etilganligi kabi ikkilamchi omillarga ham bog‘liq.

Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarda yozish qobiliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini o‘rganish yozma nutq faoliyatining psixofiziologik, psixolingvistik va neyrolingvistik asoslarini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu masala doirasida olib boriladigan tadqiqotlar, ilmiy tajriba va ilmiy kuzatishlar natijasida olinadigan xulosalar ta’lim siyosati hamda amaliyoti bo‘yicha muhim qarorlarni qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarda yozma nutqni shakllantirish jarayoniga to‘g‘ri yondashish, ularni qo‘llab-quvvatlash hamda maktab yoshida disgrafiya, disleksiya singari ta’limiy nuqsonlarning vujudga kelishini erta bosqichda taxmin qilish va tegishli qo‘llab-quvvatlash usullaridan foydalanish, shu bilan birga, ushbu ta’limiy nuqsonlarning oldini olishda nihoyatda dolzarb.

[1] Adi-Japha E., Landau E., Frenkel L., Teicher M., Gross-Tsur V., Shalev R.S. ADHD and dysgraphia: underlying mechanisms. Cortex 43, 2007. – P. 700.

[2] Лурия А.Р. Высшие корковые функции человека и их нарушения при локальных поражениях мозга. – М., 1962. – С. 64.

Rezyume. Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarda yozish qobiliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini o‘rganish yozma nutq faoliyatining psixofiziologik, psixolingvistik va neyrolingvistik asoslarini tadqiq etishda, shuningdek, yozma nutq muammolarini erta bosqichda aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarda yozish qobiliyatining shakllanishi va rivojlanishi, yozish malakasini egallash va yozma nutqning faoliyat darajasiga ko‘tarilishi xususida so‘z boradi. Maktab yoshigacha va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozish jarayonini kuzatish orqali chiqarilgan xulosalar taqdim etiladi.

Resume. The study of the formation and development of writing skills in preschool children is of great importance in studying the psychophysiological, psycholinguistic and neurolinguistic foundations of written speech activity, as well as in identifying problems with written speech at an early stage. This article discusses the formation and development of writing skills in preschool children, the complex processes and stages leading to the acquisition of writing skills and the advancement of written speech to the level of activity. The conclusions drawn from observing the writing process of preschool and primary school students are presented.

Резюме. Изучение процесса формирования и развития умения писать у детей дошкольного возраста имеет важное значение для исследования психофизиологических, психолингвистических и нейролингвистических основ письменной речевой деятельности, а также выявления проблем письменной речи на раннем этапе. В данной статье рассматривается формирование и развитие навыков письма у детей дошкольного возраста, приобретение навыков письма и подъём письменной речи на уровень активности. Представлены выводы, полученные при наблюдении за процессом письма учащихся дошкольного и младшего школьного возраста.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2024; 11
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

O‘ZBEK TILIDA KOMPLIMENTLARNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI (O‘. HOSHIMOVNING «IKKI ESHIK ORASI» ASARI MISOLIDA)

Nazarmatova Kumush Farhodovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti marjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi tayanch doktoranti

Har bir til o‘z so‘zlashuvchilarining madaniyati, qadriyatlari hamda tajribalarini o‘zi bilan olib yuruvchi noyob kema kabidir. Tillarni chuqur tadqiq etish nafaqat ularning muloqot strukturalarining nozik estetikasini yoritishda, balki insonlarning dunyoni qay tarzda idrok etishi, o‘zaro aloqa uslublarining xilma-xilligini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tillarni o‘rganish insoniyatning umumiy chegaralarini bog‘lab turuvchi ko‘priklarni bunyod etishga, madaniyatlararo hamjihatlik, totuvlikni ta’minlashga yordam beradi.

So‘ngi yillarda inson va til o‘rtasidagi munosabat, shaxslararo muloqot, turli xalqlarga xos bo‘lgan nutqiy munosabatlar, ular orasidagi tafovutlar, o‘xshashliklar hamda o‘ziga xos jihatlari, madaniyatning muloqotga ta’siri jahon tilshunos olimlarining e’tiborini tortmoqda, ularni o‘rganish orqali xalqlar o‘rtasida hamjihatlik, do‘stlik va barqarorlikni ta’minlashga harakat qilinmoqda. Bunday tadqiqotlarning aksariyati turli millatlarga xos bo‘lgan nutqiy etiket shakllarini o‘rganish bilan bog‘liqdir.

Lingvopragmatika – bu tilshunoslikning bir sohasi bo‘lib, u tilning real hayotiy muloqot vaziyatlarida qanday qo‘llanilishini o‘rganadi. Bu soha til tuzilmalari va ularning kommunikativ jarayondagi qo‘llanilish uslublarini tadqiq etadi. Lingvopragmatika tilshunos-